

**BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINING AHAMIYATI,
TAMOYILLARI VA USULLARI****Abdullayev Behzod Ramazanovich***O'zbekiston Respublikasi Bank -moliya Akademiyasi mutaxassislik Davlat moliyaviy
nazorati va auditi*

Annotatsiya: Ushbu maqola byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimining ahamiyati, uning nazariy va amaliy jihatlarini, shuningdek, auditning samarali tashkil etilishi yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ichki auditning maqsad va vazifalari, audit o'tkazish tamoyillari, xavflarni boshqarish usullari va audit jarayonining asosiy bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, ichki audit tizimi orqali davlat mablag'larini boshqarish, moliyaviy jarayonlarni takomillashtirish, firibgarlikning oldini olish va resurslardan samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, ichki auditning tashkilot samaradorligini oshirish va shaffof boshqaruvni ta'minlashdagi rolini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Byudjet tashkilotlari, ichki audit, audit usullari, samaradorlik, firibgarlikning oldini olish, xavflarni boshqarish, audit jarayoni.

**THE IMPORTANCE OF THE INTERNAL AUDIT SYSTEM IN BUDGET
ORGANIZATIONS, PRINCIPLES AND METHODS**

Abstract: This article is devoted to the study of the importance of the internal audit system in budget organizations, its theoretical and practical aspects, as well as ways of effective organization of the audit. The article describes the goals and tasks of internal audit, the principles of conducting an audit, risk management methods, and the main stages of the audit process. Also, issues of management of state funds, improvement of financial processes, prevention of fraud and effective use of resources are considered through the internal audit system. The article also analyzes the role of internal audit in improving organizational efficiency and ensuring transparent management.

Keywords: Budget organizations, internal audit, audit methods, efficiency, fraud prevention, risk management, audit process.

Kirish

Byudjet tashkilotlari davlat mablag'larini boshqarish jarayonida mas'uliyat, shaffoflik va samaradorlik kabi tamoyillarga amal qilishi zarur. Ushbu tamoyillarni ta'minlashda ichki audit tizimi muhim rol o'ynaydi. Ichki audit tizimi nafaqat tashkilotning moliyaviy jarayonlarini nazorat qilish, balki faoliyatning samaradorligini oshirish, resurslarni oqilona taqsimlash, firibgarlik va qonunbuzarliklarning oldini olish vazifalarini ham o'z zimmasiga oladi. Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimining asosiy komponentlari, uni joriy etish va samarali tashkil qilish yo'llari batafsil ko'rib chiqiladi. Ichki auditning davlat mablag'larini boshqarishda tutgan o'rni, uning asosiy maqsad va vazifalari, tashkilot ichidagi audit jarayonlarining tashkil etilishi va amaliyoti bo'yicha chuqur tahlil beriladi.

Maqolada, shuningdek, ichki audit jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari va ilg‘or xalqaro tajribalar misolida tavsiyalar taqdim etiladi.

Ichki audit tizimi davlat byudjeti mablag‘larini samarali boshqarish vositasi bo‘lib, tashkilotning umumiy faoliyati, moliyaviy barqarorligi va qonunlarga rioya etishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, audit jarayonlari orqali tashkilotdagi operatsion va moliyaviy xatolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shu jihatdan ichki audit tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki tashkilotning strategik rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim mexanizmdir. (Omonova Z., 2023)

Bugungi kunda respublikamizda mavjud davlat moliyaviy nazorati tizimi asosan tashqi moliyaviy nazoratdan iborat bo‘lib, vakolatli organlarning alohida bo‘linmalari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Bosh prokuratura, o‘z vazifalari doirasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi. (Mehmonov S.U., 2022)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini oshirish, byudjet qonunchiligi buzilishining oldini olishni kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorda byudjet mablag‘lari ijrosini nazorat qilish va uning shaffofligini ta‘minlash, bu borada davlat moliyaviy nazorati tizimida keskin ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish belgilangan Respublikada byudjet mablag‘lari ilg‘or xalqaro tajriba asosida takomillashtirilib, byudjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat tizimiga alohida e‘tibor qaratish lozimligi takidkab o‘tilgan. (PQ-128-coh 14.02.2022. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida, no date)

Byudjet tashkilotlarida ichki audit – tashkilot tomonidan smetalarni tuzish hamda ijrosini amalga oshirishni qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish hamda monitoring olib borish yo‘li bilan nazorat qilish, moliyaviy hisobot ma‘lumotlarining ishonchliligini ta‘minlash, mablag‘larni maqsadli va oqilona sarflashga yo‘naltirilgan faoliyatdir. (Usmonov Sh.Sh., 2022)

Byudjet tashkilotlarida Ichki audit xizmati faoliyatini samarali tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Ichki audit faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tashqi va ichki risklarni aniqlash va tahlil qilish, shuningdek, xavf darajasini pasaytirish yoki ehtimolini minimallashtirish imkonini beruvchi tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Byudjet tashkilotlarida ichki auditniq asosiy maqsadi bu tashkilotninig moliyaviy axborotlarning to‘g‘riligini ta‘minlash, qonunchilik va me‘yoriy talablarga rioya qilinishini nazorat qilish, risklarni boshqarish, samaradorlik va tejamkorlikni oshirish, firibgarlik va suiiste’molliklarning oldini olish va hisobotlilikni kuchaytirish va javobgarlikni oshirishdan iborat. (Axmadjonov K. and Yakubov I., 2010)

Ichki audit xizmatining vazifalari quyidagilardan iborat:

- tashkilotning moliyaviy jarayonlarini muntazam ravishda ko‘rib chiqadi va nazorat qiladi. Bu jarayonning to‘g‘ri va ishonchli bo‘lishini ta‘minlaydi, natijada moliyaviy hisobotlar aniq, o‘z vaqtida va ishonchli bo‘ladi;

- tashkilotdagi resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Auditorlar resurslardan foydalanishdagi samarasizliklarni aniqlash orqali ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Bu esa tashkilotning operatsion jarayonlarini takomillashtirib, samaradorlikni oshiradi va ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi;

- tashkilot faoliyatini keng ko‘lamda tahlil qilib, rahbariyatga strategik tavsiyalar beradi. Bunda auditorlar tashkilotning rivojlanish istiqbollari, samaradorligini oshirish yo‘llari va resurslarni boshqarishdagi takomillashtirish choralarini ko‘rsatadi. Bu esa rahbariyatga to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi, natijada tashkilotning samaradorligi va raqobatbardoshligi oshadi.

- ichki audit jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan rahbariyatga tezkor tavsiyalar beradi, ularning bartaraf etilishini nazorat qiladi.

Byudjet tashkilotlarida ichki auditni samarali joriy etish uchun bir nechta muhim usullar va yondashuvlar qo‘llaniladi. Bu usullar ichki audit tizimining amaliyotini takomillashtirish va tashkilotning moliyaviy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyida ichki auditni joriy etishning asosiy usullari yoritiladi:

1. Riskga asoslangan audit - Bu usulda ichki audit tashkilotdagi yuqori xavfli sohalarga e‘tibor qaratadi. Audit rejalari xavflarni baholash asosida tuziladi va tashkilotning moliyaviy barqarorligiga ta‘sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Riskga asoslangan yondashuv yordamida auditorlar resurslarni eng xavfli sohalarga yo‘naltiradi, bu esa xatoliklar va moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishga yordam beradi.

2. Kompleks audit rejasini ishlab chiqish - ichki audit jarayonini samarali tashkil qilish uchun uzoq muddatli va kompleks audit rejasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunday reja tashkilotning barcha faoliyat sohaslarini qamrab oladi va audit rejasida har bir soha uchun alohida maqsadlar, metodologiya va vaqt oralig‘i belgilanadi.

3. Operatsion samaradorlikni oshirish - ichki audit nafaqat moliyaviy jarayonlarni nazorat qiladi, balki operatsion jarayonlarni ham yaxshilashga qaratilgan. Bu usul orqali tashkilotning operatsion faoliyati tekshiriladi va samaradorlikni oshirish yo‘llari aniqlanadi. Jarayonlarning soddalashtirilishi va resurslardan oqilona foydalanish orqali tashkilotning umumiy faoliyati yaxshilanadi.

4. Xatarlarni doimiy baholash - ichki auditning yana bir samarali usuli xatarlarni muntazam ravishda baholab borishdir. Xatarlarni baholash orqali tashkilotga ta‘sir qiluvchi omillar aniqlanadi va ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Tashkilot xavflarni kamaytirish orqali moliyaviy va operatsion barqarorlikka erishishi mumkin.

5. Ichki audit uchun texnologiyalardan foydalanish - zamonaviy ichki audit tizimlari texnologiyalarga asoslanadi. Texnologik vositalar va avtomatlashtirilgan audit dasturlari jarayonlarning samaradorligini oshiradi, xatolarni kamaytiradi va natijalarni tezkorlik bilan olish imkonini beradi.

6. Foydali fikr-mulohaza va tavsiyalar tizimini yo‘lga qo‘yish - ichki audit jarayoni natijasida tuzilgan hisobotlar va tavsiyalar auditorlar tomonidan rahbariyatga taqdim etiladi. Ushbu tavsiyalar asosida tashkilot faoliyatidagi kamchiliklar bartaraf etiladi va yangi strategiyalar ishlab chiqiladi. Bu usul rahbariyatni qaror qabul qilishda faol jalb qilish va audit jarayonini yaxshilash imkonini beradi.

7. Tavsiya va kuzatuv tizimi - samarali ichki audit tizimi tashkilotdagi jarayonlarni tekshirish bilan cheklanmaydi, balki aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi va ularning amalga oshirilishini kuzatadi. Auditorlar tavsiyalarning qanchalik bajarilishini nazorat qilish uchun kuzatuv tizimini yo‘lga qo‘yadilar.

Ichki audit tizimini byudjet tashkilotlarida joriy etishda va amalga oshirishda bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolar audit jarayonini murakkablashtiradi va uning samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Quyida ichki audit tizimida duch kelinadigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritiladi:

Resurslar cheklovlari - Byudjet tashkilotlarida ichki auditni samarali amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy va inson resurslari talab qilinadi. Ko‘pgina byudjet tashkilotlarida resurslar cheklangan bo‘lib, bu ichki audit jarayonining ko‘lami va sifati bilan bog‘liq muammolarga olib keladi. Masalan, malakali auditorlarning yetishmasligi, texnologik vositalarga cheklangan kirish va moliyaviy mablag‘larning yetarli emasligi audit samaradorligini kamaytirishi mumkin. Bunga echim tashkilot auditorlar malakasini oshirish uchun doimiy trening va rivojlanish dasturlariga e‘tibor qaratishi, shuningdek, resurslarni optimal tarzda taqsimlash strategiyalarini ishlab chiqishi lozim. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun texnologiyalardan kengroq foydalanish ham bu muammoni yengishda yordam beradi.

Murakkab me‘yoriy-huquqiy talablar - Byudjet tashkilotlari davlat va xalqaro qonunchilikka qat‘iy rioya qilishlari zarur, ammo bu talablar ko‘pincha murakkab va o‘zgaruvchan bo‘ladi. Ichki auditorlar qonunchilikdagi bu o‘zgarishlarni doimiy kuzatib borishi va ularni faoliyatiga tatbiq etishi lozim. Shu bilan birga, bu qoidabuzarliklar aniqlanganda, ularni o‘z vaqtida bartaraf etish talab etiladi, bu esa jarayonni qiyinlashtiradi.

Ichki audit uchun texnologiyalarning yetarli emasligi - zamonaviy audit tizimlari texnologik yutuqlar bilan chambarchas bog‘liq. Biroq ko‘plab byudjet tashkilotlari texnologiyalardan to‘liq foydalana olmaydi yoki tegishli dasturiy ta‘minotga ega emas. Bu esa audit jarayonini murakkablashtiradi, jarayonlarning uzoq vaqt olishi va natijalarning kechikishiga olib kelishi mumkin. Tashkilotlar texnologik yangilanishlarga sarmoya kiritishi, zamonaviy audit dasturlaridan foydalanishi kerak. Texnologik vositalar ichki audit samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, jarayonlarni avtomatlashtirish orqali vaqtni tejash va xatolarni kamaytirish imkonini beradi.

Auditorlarning yetarli malakasi va tajribasining yetishmasligi - malakali auditorlarning yetishmasligi byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini samarali amalga oshirishga to‘siq bo‘lishi mumkin. Auditorlar moliyaviy jarayonlarni, qonunchilikni va texnologiyalarni yaxshi tushunishi lozim, biroq bu har doim ham oson emas. Shuningdek,

auditorlar yangi usullar va tendentsiyalarga tez moslasha olishlari kerak. Buning uchun auditorlar uchun doimiy malaka oshirish dasturlari tashkil etish, ilg‘or tajribalar va zamonaviy yondashuvlar bilan tanishtirish orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini yaxshilash zarur. Auditorlarning professional rivojlanishi ichki audit tizimining samaradorligini oshiradi.

Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini joriy etishda va amalga oshirishda ko‘plab muammolar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularga yechim topish va tizimni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Bu jarayonda doimiy treninglar, texnologiyalardan foydalanish, xatarlarni boshqarish va rahbariyat bilan yaqin hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Shu orqali ichki audit tizimining samaradorligi va tashkilotning umumiy faoliyati yaxshilanadi.(Shoalimov A., Ilhamov Sh. and Tojiboyeva Sh., 2016)

Xulosa. Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimi davlat mablag‘larining samarali boshqarilishini, tashkilotning moliyaviy barqarorligi va faoliyatining shaffofligini ta‘minlashda muhim vositadir. Ichki audit jarayoni tashkilotning moliyaviy axborotlari to‘g‘riligini tekshirish, xatarlarni boshqarish, qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish va firibgarlikning oldini olish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, ichki audit jarayoni tashkilotning operatsion samaradorligini oshirishga, resurslarni oqilona taqsimlashga va uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Ichki audit tizimining samarali ishlashi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi, balki tashkilotning umumiy samaradorligini oshiradi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi. Shu sababli, byudjet tashkilotlari ichki audit tizimiga alohida e‘tibor qaratishi va uni rivojlantirishga sarmoya kiritishi zarurdir.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmadjonov K. and Yakubov I. (2010) *Audit asoslari*.
2. Mehmonov S.U. (2022) ‘FORMATION OF INTERNAL AUDIT REPORTS AND RECOMMENDATIONS IN BUDGET ORGANIZATIONS’, pp. 469–472.
3. Omonova Z. (2023) *INTERNAL AUDIT SYSTEM IN BUDGET ORGANIZATIONS: ENSURING ACCOUNTABILITY AND EFFICIENCY*. Available at: <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/6814> (Accessed: 9 October 2024).
4. PQ-128-coh 14.02.2022. *O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida* (no date). Available at: <https://lex.uz/docs/-5858712> (Accessed: 9 October 2024).
5. Shoalimov A., Ilhamov Sh. and Tojiboyeva Sh. (2016) *Iqtisodiy tahlil va audit*. Available at: NamDU.uz.
6. Usmonov Sh.Sh. (2022) ‘BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYA XO‘JALIK FAOLIYATINI NAZORAT KILISHNING AMALDAGI HOLATI’, pp. 16–21.